






## 2021- yilning yanvar-may oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyatida jami **2386,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **117,4 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3413 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 259 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **3,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **67,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **5,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **22,4 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **24,4 %**) o'sishidir.



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**


	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.06.2020-yil	01.06.2021-yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3154</b>	<b>3413</b>	<b>108,2</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	<b>814</b>	<b>879</b>	<b>108,0</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>126</b>	<b>144</b>	<b>114,3</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	<b>145</b>	<b>145</b>	<b>100,0</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>139</b>	<b>158</b>	<b>113,7</b>
<b>Qamashi</b>	<b>175</b>	<b>184</b>	<b>105,1</b>
<b>Qarshi</b>	<b>362</b>	<b>407</b>	<b>112,4</b>
<b>Koson</b>	<b>267</b>	<b>295</b>	<b>110,5</b>
<b>Kitob</b>	<b>127</b>	<b>119</b>	<b>93,7</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>81</b>	<b>79</b>	<b>97,5</b>
<b>Muborak</b>	<b>184</b>	<b>191</b>	<b>103,8</b>
<b>Nishon</b>	<b>113</b>	<b>120</b>	<b>106,2</b>
<b>Kasbi</b>	<b>143</b>	<b>154</b>	<b>107,7</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>194</b>	<b>215</b>	<b>110,8</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>112</b>	<b>116</b>	<b>103,6</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>172</b>	<b>207</b>	<b>120,3</b>

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,8 %), Qarshi (11,9 %) va Koson (8,6 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-may oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **556,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **225,4** % ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **11,0** % punktga ko'payib, **23,3** % ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-may oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

ulushi, % da

o'sish sur'ati, % da




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **34,9** % i yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **9,7** martaga ko'p), Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **28,3** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,0** %), Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,5** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **6,5** marta ko'p ) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlaringning umumiylajmi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-may oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payishi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,5 %** to'g'ri kelib, 2020-yilning yanvar-may oylari ko'rsatkichiga nisbatan **9,7** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etgan holda **1323,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,2 %** ni tashkil etdi yoki **506,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **105,6 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **104,8** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2282,1** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **4,4 %** va **95,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2021- yil yanvar-may oylarida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2386,9</b>	<b>117,4</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	656,7	107,9	26,3
<b>Shahrisabz</b>	129,8	133,6	5,8
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	359,2	175,8	16,6
<b>Dehqonobod</b>	60	116,2	2,4
<b>Qamashi</b>	51,9	101,5	2,2
<b>Qarshi</b>	154,9	100,3	6,5
<b>Koson</b>	131,2	103,3	5,5
<b>Kitob</b>	126,4	101,9	5,3
<b>Mirishkor</b>	21,1	52,8	0,9
<b>Muborak</b>	169,3	157,1	7,5
<b>Nishon</b>	96,9	103,2	4,1
<b>Kasbi</b>	81,6	113,0	3,3
<b>Chiroqchi</b>	179,4	131,4	6,6
<b>Shahrisabz</b>	59,5	104,9	2,5
<b>Yakkabog'</b>	109	101,5	4,5

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar-may oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 75,9 % i yoki **1401,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **215,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 15,4 % ni tashkil etdi

15,4 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **724,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,7 % ni tashkil etdi.


51,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **461,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.

32,9 %

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi

2021- yilning yanvar-may oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47